




2021- yil yanvar-mart oylari uchun Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami 857,7 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 101,6 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxonalar va
mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.





Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yilning yanvar-mart oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

Joriy yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 115,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning yanvar-mart oyiga nisbatan oʻsish surʼati 124,8 % ni tashkil etdi va jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,3 % punktga koʻpayib, 13,4 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Qoʻngʻirot tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 58,5 %, yoki 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 136,0 %), Taxiatoş (ulushi 44,7 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 236,8 %), va Nukus shahri (ulushi 12,1 %, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 166,7 %)ga toʻgʻri keldi.



58,5

Qoʻngʻirot

44,7

Taxiatioş

12,1

Nukus sh.



2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi



2021- yilning yanvar-mart oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga, jami qurilish ishlari hajmining **69,8 %** i to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **5,0 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **95,9 %** ni tashkil etgan holda **598,8** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi, % da




Ma'lumot uchun: Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri 256,7 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 82,2 %, To'rtko'l tumani (58,2 mlrd. so'm, ulushi 91,4 %), Qo'ng'iro't (29,1 mlrd. so'm, ulushi 33,6 %) va Mo'ynoq (49,0 mlrd. so'm, ulushi 91,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 16,8 % ni tashkil etdi yoki 143,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **88,0** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 769,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **10,3 %** va **89,7 %** ni tashkil etdi.



2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



2021- yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimidagi qurilish ishlari



	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sinh sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan ulushi, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	857,7	101,6	100,0
Nukus sh.	312,2	102,0	36,4
tumanlar:			
Amudaryo	35,7	109,0	4,2
Beruniy	34,5	96,5	4,0
Bo‘zotov	15,2	100,3	1,8
Qorao‘zak	15,2	95,8	1,8
Kegeyli	17,8	99,4	2,1
Qo‘ng‘irot	86,4	114,5	10,1
Qonliko‘l	15,4	90,4	1,8
Mo‘ynoq	54,2	100,4	6,3
Nukus	36,8	80,1	4,3
Taxiatosh	46,7	120,3	5,4
Taxtako‘pir	17,8	96,7	2,1
To‘rtko‘l	63,6	100,5	7,4
Xo‘jayli	24,5	76,1	2,8
Chimboy	22,2	126,5	2,6
Shumanoy	22,7	104,4	2,6
Ellikqal‘a	36,8	102,3	4,3

2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

66,0 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 66,0 % i yoki **566,0** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **80,7** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 70,2 % ni tashkil etdi.

70,2 %

57,5 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **344,2** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 57,5 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **141,1** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 98,1 % ni tashkil etdi.

98,1 %


Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlari (bino va inshootlar) kompleksini qurish .



Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI


Bino va inshootlar qurilishi



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **8,8 %** ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,2 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **7,0 %** punktga kamayib, **66,0 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yilning yanvar-mart oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **4,2 %** punktga ko'payib, **25,2 %** ni tashkil etdi.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **24,9 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **75,1 %** (**2,8 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.



2020- yil yanvar-mart 2021- yil yanvar-mart


2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,4 %** punktga kamaydi va **16,2 %** ni tashkil etdi. Qolgan **79,6 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,4 %** punktga ko'paydi.



2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI



Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-mart oyida


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	857,7	115,0	598,8	143,9
Nukus sh.	312,2	37,7	256,7	17,8
tumanlar:				
Amudaryo	35,7	0,0	13,4	22,3
Beruniy	34,5	0,0	16,8	17,7
Bo'zotov	15,2	0,0	14,8	0,4
Qorao'zak	15,2	0,1	14,6	0,5
Kegeyli	17,8	1,1	9,2	7,5
Qo'ng'iro't	86,4	50,5	29,1	6,8
Qonliko'l	15,4	0,1	9,5	5,8
Mo'ynoq	54,2	1,0	49,3	3,9
Nukus	36,8	0,1	21,9	14,8
Taxiatosh	46,7	20,9	18,5	7,3
Taxtakopir	17,8	0,0	15,9	1,9
To'rtko'l	63,6	2,5	58,2	2,9
Xo'jayli	24,5	0,1	21,9	2,5
Chimboy	22,2	0,0	9,9	12,3
Shumanoy	22,7	0,1	19,8	2,8
Ellikqal'a	36,8	0,8	19,3	16,7


2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI

Shahar va tumanlar kesimida bajarilgan qurilish ishlarining respublikadagi ulushi



Ma'lumot uchun: Qurilish ishlari hajmi bo'yicha respublikadagi eng yo'qori ulushga ega Nukus shahri – 36,4 %, Qo'ng'iro't tumani - 9,0 % va To'rtko'l tumani - 7,4 % ga to'g'ri keldi.



2021- yil yanvar-mart

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QURILISH ISHLARI

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi statistika
boshqarmasi Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo‘limi
Aloqa telefoni: (61) 224-92-14
(61) 222-75-91**

2021- yil yanvar-mart

13

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDA
QURILISH ISHLARI**